

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**YOKUBOVA SEVINCHOY ISLAMJANOVNA**

**O‘ZBEK JADID SHE‘RIYATIDA OBRAZ VA RAMZLAR POETIKASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
Philology Sciences**

**Yokubova Sevinchoy Islamjanovna**

O‘zbek jadid she‘riyatida obraz va ramzlar poetikasi.....3

**Якубова Севинчой Исламджановна**

Поэтика образов и символов в узбекской джадидской поэзии .....23

**Yokubova Sevinchoy Islamjanovna**

Poetics of images and symbols in Uzbek Jadid poetry.....46

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works ..... 51**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**YOKUBOVA SEVINCHOY ISLAMJANOVNA**

**O‘ZBEK JADID SHE‘RIYATIDA OBRAZ VA RAMZLAR POETIKASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1740 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www. tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich**  
filologiya fanlari doktori, professor, akademik

**Afoqova Nodira Maxmudovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “11” may soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 287 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “26” 09 kuni tarqatildi.

(2024-yil “26” 09 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)



**H.A. Dadaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**Q.U. Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**B.N. Karimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida she'riyatni obraz va ramzlar poetikasi, genezisi, badiiy-estetik ideal va uning muayyan davr lirikasida namoyon bo'lish yo'sinlari, poetik mazmun va shaklning yangilanishi, yaxlit poetik tizim sifatidagi xususiyatlari hamda tadrijiy takomili, an'ana va o'ziga xoslik kabi masalalar doirasida ilmiy-nazariy aspektda tahlil va tadqiq qilish har doim dolzarb sanalib kelgan.

Dunyo adabiyotshunosligida turk dunyosi va keng ma'noda butun Sharq adabiyotiga ham o'zining muayyan ta'sirini o'tkazgan jadid adabiyoti namoyandalari hayoti va faoliyati, asarlarining g'oyaviy-mafkuraviy hamda badiiy-estetik qimmatini o'rganishga e'tibor kattadir. Shuningdek, jadidlarning xalqdan "sir saqlangan" asarlarini izlab topish va ilmiy muomalaga kiritish, mumtoz adabiy an'analarning bu adabiyotga ta'siri masalalarini o'rganish kabi ustuvor yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar muhim nazariy ahamiyat kasb etmoqda. Xorij va o'zbek olimlari tadqiqotlarida jadid she'riyati, xususan, Cho'lpon, Fitrat, Avloniy, Hamza va Tavallo ijodiy merosiga an'ana va o'ziga xoslik jihatidan muayyan munosabat bildirilgan. Turkistondagi milliy uyg'onish jarayonida badiiy adabiyot va san'atning o'rni, adabiyotning o'tmish an'alariga munosabati masalalari, asosan, sotsiologik va qisman yangicha yondashuvlar asosida o'rganilgan. Bu adabiyotshunos va sotsiologlarning bir qismi turli sabablar bilan xorijiy mamlakatlarda muhojirlikda yashagan o'zbeklar edi. Ayni paytda, o'zbek adabiyotshunoslarining bir qator izlanishlari ham xorijiy nashrlarda chop etilgan. Anglashiladiki, dunyo adabiyotshunosligida jadid shoirlarining asarlari matni va ma'no qatlamlarini chuqur o'rganish, ijodini yangicha yo'nalishda tadqiq etish, alohida ijodkor shaxsiyati va ijodiy merosini tarixiy nuqtayi nazardan baholash allaqachon tabiiy jarayonga aylangan.

O'zbek adabiyotshunosligida jadid estetikasiga xos boshqa adabiy turlar qatori lirik asarlar ham yangi o'zbek she'riyati genezisi va evolyutsiyasi, xalq og'zaki ijodi va mumtoz she'riyat yutuqlari sintezi, poetik tafakkur tadriji hamda yangilanishi tamoyillari, jahon she'riyati tajribalari sinkretizmi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar nuqtayi nazaridan izchil tadqiq qilinib kelmoqda. Zero, "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega... Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor"<sup>1</sup>.

Badiiy adabiyotning, ayniqsa, uning eng faol turi sanalgan she'riyatning asosi obrazli tafakkur ekani e'tiborga olinsa, jadid she'riyatini obraz va ramzlar poetikasi kesimida o'rganish nechog'liq zarur ekani ayon bo'ladi. Chunki obraz va ramzlar tabiati hamda tadrijiy takomilini o'rganmay turib, nainki shoir ijod laboratoriyasini, balki muayyan davrga xos adabiy-estetik qonuniyatlarni ham, lirik turning

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркий давлатлар ташкилоти Давлат раҳбарлари кенгаши мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. 2023 йил 3 ноябрь.

taraqqiyot tendensiyalarini ham aniqlash imkonsizdir. Adabiyotshunoslik uchun muhim bo‘lgan ayni shu xususiyatlarni o‘rganish zarurati ushbu tadqiqot mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF- 6108-son “O‘zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek adabiyotshunosligida XX asr boshlaridayoq jadid adabiyotiga mumtoz poetik an‘analarning ta‘siri masalasini o‘rganishga kirishilgan bo‘lsa-da, kommunistik mafkura ta‘sirida 30-yillardan e‘tiboran jadidlar ijodiy merosini tadqiq qilish man etilgani sababli bu jarayon muayyan muddat to‘xtab qolgan edi. Biroq XX asrning 60-80-yillarida ayrim izlanishlar amalga oshirila boshlagani kuzatiladi. Masalan: H.Yoqubov, E. Karimov, B.Qosimov, A.Aliyev va tojik olimi X.Mirzozoda ilmiy tadqiqotlari bu jihatdan diqqatga sazovordir<sup>2</sup>. Afsuski, bunday xayrli intilishlar yo‘li to‘sis qo‘yilgan edi.

XX asrning 80-yillari oxiri va mustaqillik davrida, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, B.Qosimov, B.Nazarov, B.Do‘stqorayev, Sh.Turdiyev kabi adabiyotshunoslar jadid ijodkorlari shaxsiyati va adabiy merosini xolis ilmiy baholash, bu adabiyotning taraqqiyot tamoyillarini milliy istiqloq mafkurasi asosida o‘rganish yuzasidan salmoqli ishlarni amalga oshirdilar<sup>3</sup>. H.Boltaboyev, Sh.Rizayev, I.G‘aniyev, D.Quronov, N.Jabborov, B.Karimov, U.Jo‘raqulov, Z.Abdurashidov, N.Afoqova, Z.Mirzayeva, R.Sharipov va Sh.Hojiyeva ishlarida jadid adabiyotshunosligi, jadid dramasi va nasri poetikasi, ma‘rifat talqini, she‘riyatdagi ramzlar va shakliy yangilanishlar, ijtimoiy voqelik ifodasi, jadid

---

<sup>2</sup> Ёқубов Ҳ. Ўзбек демократ шоири Муқимий, – Т., 1953; Тирик сатрлар. Мажмуа. – Т., 1968; Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Т.: Фан, 1975; Қосимов Б. Излай-излай тоганим. – Т., 1983; Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Т., 1983; Алиев А. Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат. – Т., 1991.

<sup>3</sup> Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: Ёзувчи, 1994; Норматов У. «Ўткан кунлар» хайрати. – Т.: Ўқитувчи, 1996; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002; Назаров Б. Фитрат маърифатининг гултожи // Шарқ юлдузи. – Т., 1991, №8. – Б.8–9; Турдиев Ш.. Шоир Элбек. // Гулистон, 1990, №11; ўша муаллиф. Тонг юлдузи қисмати // Ёшлик. – Т., 1991, №3; Дўстқороев Б. Жадидлар қандай ижтимоий тузумни орзу қилганлар // Жаҳон адабиёти. – Т., 2019, №9.

adabiyotining xorijda o'rganilishi, alohida ijodkorlar lirik merosi kabi ilmiy-nazariy muammolar tahlil qilindi<sup>4</sup>.

Adabiyotshunoslikda jadid she'riyatining g'oyaviy-estetik xususiyatlari, adabiy tur va janrlar yangilanishi omillari, taraqqiyot tamoyillari singari masalalar bo'yicha dissertatsion tadqiqotlar yuzaga keldi. Shuningdek, jadid ijodkorlari adabiy merosining ko'lami, poetikasi, muayyan shoirning badiiy-estetik ideali, poetik mahorati sirlari, adabiy merosini tahlil va talqin qilish muammosi, bu davr adabiyotining Turkiya va AQSHda o'rganilishi, jadid she'riyatidagi ramz va obrazlar mumtoz adabiyot, an'ana va o'ziga xoslik kabi yo'nalishlarda tadqiq etildi<sup>5</sup>.

Ta'kidlash joizki, o'zbek jadid she'riyatida obraz va ramzlar poetikasi, turli munosabat bilan bildirilgan ayrim fikrlar-u qaydlarni istisno etganda, maxsus o'rganilgan emas. Ushbu dissertatsiya shu paytga qadar bajarilgan ilmiy ishlardan mazkur mavzu monografik aspektida tadqiq qilingani bilan alohida ajralib turadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan muassasa ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

---

<sup>4</sup> Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Миллий кутубхона, 2007; Ганиев И. Фитрат, эътикод, ижод. – Т.: Камалак, 1994; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ НМАК, 2004; Жабборов Н. Маърифат надир? – Т.: Маънавият, 2010; ўша муаллиф. Адабиёт ва миллий маънавият. – Т.: Маънавият, 2015; ўша муаллиф. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Т.: Университет, 2000; Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006; Абдурашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистон XX аср бошларида: алоқалар, муносабатлар, таъсир. – Т.: Академнашр, 2011; Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. – Т.: Akademnashr, 2017; Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Т.: Фан, 2005; ўша муаллиф. Жадид шеърятти поэтикаси. – Т.: Фан, 2005; ўша муаллиф. Жадид ғазалиёти. – Т.: Фан, 2005; Шарипов Р.Х. Жадид адабиётида янгиланиш, ислохот ва мустақиллик учун кураш ғояларининг акс этиши. – Т., 2023; Ҳожиёва Ш. Чўлпон ва миллий шеърятнинг янгиланиши.. – Т.: Muharrir, 2018.

<sup>5</sup> Эшоновна З.Ш. Чўлпон шеърятининг ғоявий-бадий ўзига хослиги: Филол. фан. номз...дисс.авторевф. – Т., 1991; Аҳмедов Ш. Ҳамза лирикасининг хусусиятлари: Филол. фан. номз...дисс. – Т., 1992; Каримов Н.Ф. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафқураси: Филол. фан. д-ри...дисс. авторевф. – Т., 1993; Ризаев Ш.Т. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари: Филол. фан. номз...дисс. авторевф. – Т., 1995; Болтабоев Х. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри...дисс. – Т., 1996; Куронов Д. Чўлпоннинг "Кеча ва кундуз" романида характер психологизми: Филол. фан. номз...дисс. – Т., 1992; Куронов Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари асосида): Филол. фан. д-ри...дисс. – Т., 1998; Йўлдошев Н. Чўлпон шеъряттида пейзаж: Филол. фан. номз...дисс. – Т., 1994; Султанов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари: Филол. фан. номз...дисс. – Т., 1995; Ганиев И. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри...дисс. – Т., 1998; Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати: Филол. фан. номз...дисс. авторевф. – Т., 1998; Каримов Б. Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Филол. фан. д-ри...дисс. – Т., 2002; Афоқова Н. Ўзбек жадид шеъряттида шеърый шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол. фан. д-ри...дисс. – Т., 2005; Мирзаева З.И. Ўзбек жадид адабиётининг Америкада ўрганилиши: Филол. фан. номз...дисс. – Т.: 2006; Каримов О.Я. Абдулла Орипов шеъряттида метафорик образлар тизими: Филол. фан. номз...дисс. – Т.: 2012; Хамдамов У.А. XX аср ўзбек шеъряттида бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри...дисс. (DSc) – Т., 2017; Тажиббаева Л.Ф. Янги ўзбек шеърятти генезиси ва тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. бўйича фалс. док...дисс. авторевф. – Урганч, 2023; Раҳмонова Д. М. Тавалло ижодида поэтик шакл, мазмун ва образ янгиланиши тамойиллари: Филол. фан. бўйича фалс. док...дисс. авторевф. – Т., 2023; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978; Матёкубова Т. Огаҳий шеъряттида анъанавий образлар талқини: Филол. фан. номз...дисс. авторевф. – Т., 2001

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek jadid she‘riyatidagi obraz va ramzlar genezisi, estetik xossalari, badiiy vazifasi, tadrijiy takomili va yangilanish tamoyillarini poetika kesimida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

badiiy obrazning ratsional va emotsional birlik ekanini o‘zbek jadid shoirlari nazmiy merosi misolida jahon she‘riyati kontekstida qiyosiy-tipologik aspektda asoslash;

jadid she‘riyatida obraz va ramzlar genezisi hamda badiiy talqinining nazariy asoslari, estetik tamoyillari, adabiy an‘ana va ijodiy individuallik nuqtayi nazaridan yoritish;

o‘zbek jadid she‘riyatida poetik obraz va ramzlarning shakl va uslub, badiiy ifoda rakurslari, vazn, lirik kechinma hamda kompozitsiya bilan bog‘liqligini oydinlashtirish;

jadid she‘riyatining obraz va ramzlari, erk va ozodlik motivlaridagi mushtaraklik hamda o‘ziga xosliklarni qiyoslar asosida ko‘rsatib berish;

o‘zbek jadid she‘riyatida ramziy-majoziy tasvir va poetik obraz yangilanishi xususiyatlarini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavalloning she‘riy asarlari tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek jadid she‘riyatidagi ramz va obrazlar genezisi, estetik xususiyatlari, ular talqinida adabiy an‘ana va ijodiy individuallikning namoyon bo‘lishi, ramziy-majoziy tasvir va poetik obraz yangilanishi masalalari tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada biografik, analitik, sotsiologik, germenevtik, tarixiy-qiyosiy hamda qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

badiiy obraz ratsional va emotsional birlik ekani o‘zbek jadid shoirlari lirik asarlari misolida, XX asr jahon she‘riyati kontekstida dalillanib, jadid she‘riyatidagi ramzlar mohiyati o‘sha davr adabiyotiga xos estetik tamoyillar, adabiy an‘ana, ijodiy individuallik, milliy she‘riyatning poetik takomili dunyoqarash, shakl va uslub, ramziy poetik ifoda, obrazlar olami hamda badiiy mahorat misolida asoslangan;

o‘zbek jadid she‘riyati obrazlarining genezisi milliy folklor va mumtoz adabiyot namunalari, xalq inonch va urf-odat (ritual)lari, e‘tiqodiy qarashlari va jahon adabiyotining ilg‘or yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq ekani isbotlangan;

jadid she‘riyatidagi obraz va ramzlarning turkiy xalqlar nazmiy an‘analari bilan o‘zaro uyg‘unligi va o‘ziga xosligi aniqlanib, Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza, Tavallo singari shoirlar lirik merosi hamda jahon estetik tafakkuri qiyosiy tipologiyasi misolida ochib berilgan;

o‘zbek jadid she‘riyatida faol amalda bo‘lgan “quyosh”, “oy”, “yulduz”, “go‘zal”, “oq”, “qora”, “ko‘lanka”, “qora qush”, “qizil”, “bulut”, “parda”, “it”, “qashqir”, “arslon”, “tulki”, “poda”, “kishan”, “cholg‘uvchi”, “yo‘l” “yo‘qsil”, “beshik”, “tong yeli”, “qora tosh” singari ko‘plab badiiy obraz va ramzlar ratsional va emotsional birlik ekani yoritilib, mazkur obrazlarning adabiy an‘ana bilan

chambarchas bog'liqligi, shakl va uslub, badiiy ifoda rakurslari, vazn, lirik kechinma hamda kompozitsiya, obrazlarning yangilanish xususiyatlari kabi tamoyillar aniqlanib, poetik mahorat masalalari asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek jadid she'riyati ramziy-majoziy obrazlari genezisi aniqlanib, ularning yangilanish tamoyillari belgilangan. Ular yaxlit poetik tizimni tashkil qilishi isbotlangan va tasniflangan. Tadqiqotda poetik obrazlar silsilasiga xos halqalar yoritilgan. Poetik obraz va ramzlar badiiy-estetik munosabati adabiy ta'sir va ijodiy individuallik bilan bog'liqligi uzviylik hamda uzluksizlik konsepsiyasi negizida ochib berilgan;

o'zbek jadid shoirlari ijodida keng qo'llanilgan badiiy obrazlarga yuklangan yangicha ramziy ma'nolarning ijtimoiy faollashuvi – ijodkorning shaxs va jamiyatga daxldorligi sifatleri yagona aktga evrilishi jarayoni ko'rsatilgan. Shoir "men"ining iztirob va nafрати izhor etilgan yoki ikkinchi shaxsga qaratilgan poetik ramzlarning ijodkor va lirik qahramon kayfiyat-hollarini ifodalashdagi roliga doir nazariy xulosalar ishlab chiqilgan;

o'zbek jadid shoirlarining she'rlari tatar, qozoq, turk va jahon shoirlarining ijod namunalari bilan qiyosiy-tipologik aspektda tahlilga tortilgan. Ilgari surilgan fikr-mulohazalar ilmiy-nazariy tahlil asosida dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy ma'lumotlarni berishda ishonchli ilmiy manbalarga tayanilgani, qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, qardosh xalqlar hamda dunyo adabiyotshunosligining yangi yo'nalishlari va tahliliy usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Jadid she'riyatidagi ramz va obrazlar poetikasining kompleks tadqiqiga doir nazariy umumlashmalar jadid she'riyatining taraqqiyot bosqichlarini belgilashga asos bo'ladigan badiiy-estetik qonuniyatlari hamda poetik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilishi ishning ilmiy-nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bu davr she'riyatini milliy-adabiy an'ana, qardosh va jahon xalqlari lirikasi bilan uyg'unlikda, o'ziga xoslik va badiiy mahorat nuqtayi nazaridan o'rganishda, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylarda jadid she'riyati bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, maxsus kurs va seminarlar olib borishda, jadid she'riyatiga doir darslik, o'quv qo'llanmalari va majmualar tuzishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek jadid she'riyatida obraz va ramzlar poetikasi mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida: badiiy obrazning ratsional va emotsional birlik ekani, jadid she'riyatida obraz va ramzlar genezisi hamda badiiy ifodasining nazariy asoslari, estetik tamoyillari, adabiy an'ana va ijodiy individuallikka oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida

2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 05. 09.23-yildagi 342/1- son va O‘zR FA Qoraqalpoq bo‘limining 05. 09.23- yildagi 342/1 - son ma’lumotnomalari). Natijada folklorga murojaat qilish tajribalari hamda ramzlar poetikasidan foydalanib, badiiy unsurlar mohiyati va vazifalari belgilangan, adabiyotshunoslikdagi mavjud nazariy qarashlar boyitilgan;

o‘zbek jadid she‘riyati obrazlar genezisi va yangilanishi, ramzlar poetikasiga doir tahliliy fikrlardan; obrazlar poetik silsilasining halqalari yaxlit poetik tizim sifatida tadqiq etilgan o‘rinlardagi ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 7.09.23- yildagi 01/4-1682-son ma’lumotnomasi). Natijada jadid she‘riyatining obrazlari genezisi va yangilanish tamoyillarini o‘rganish asosida poetik silsila halqalarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etishga erishilgan;

o‘zbek jadid she‘riyatida obraz va ramzlar poetikasi, badiiy obraz va ramzlarda fikr hamda kechinma uyg‘unligi, turkiyzabon xalqlar jadid she‘riyatida obrazlar genezisi va yangilanish tamoyillari hamda mohiyati bilan bog‘liq ilmiy qarashlar va nazariy ma’lumotlardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Adiblar xiyobonida o‘tkazilgan adabiy-ma’rifiy tadbirlar hamda Navro‘z va Mustaqillik umumxalq bayramlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 01.12.23-yildagi 01-03/3179-son ma’lumotnomasi). Natijada umumxalq bayramlari va adabiy-ma’rifiy tadbirlar ssenariysi mazmunan boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta, jumladan, xorijiy jurnallarda 4 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari yoritilib, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Badiiy obraz va ramzlarning estetik xossalari**” sarlavhali birinchi bobining dastlabki fasli “*Badiiy obraz – ratsional va emotsional birlik sifatida*” deb nomlangan. Unda badiiy obraz va uning xossalari jahon adabiyotshunosligidagi talqin va tasniflar asosida yoritilgan. Badiiy obraz tashqi borliqdan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik – individuallashtirilgan umumlashma bo‘lib, ijodkor inson his-tuyg‘ulari orqali uning ongida akslanadi. Shoir (yozuvchi, dramaturg)ning tafakkur qudrati, ma’naviy-ruhiy ehtiyoji va salohiyatiga mos tarzda ijodiy sayqallanadi, konkret his etiladigan tarzda ifodaga ko‘chadi. Demak, badiiy obrazda obyektivlik (makon, zamon) va subyektivlik (tushuncha, tasavvur, faraz, kechinma) sintezlashadi.

O‘zbek jadid she’riyati obrazlar tizimi Turkiston o‘lkasining tarixiy taraqqiyoti, buguni va ertasi, millat qismatini badiiy talqin etish vazifasini bajargan. Jadid ijodkorlari ongli tarzda (ratsional) badiiy idrok etgan muammolar o‘ziga xos obrazlar tizimini yuzaga keltirgan. Jadid shoirlari badiiy ijodi va obrazlar tizimida lirik tuyg‘ulardan ko‘ra ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy-tashviqiy ohanglar (ba’zan birqadar tushkun va umidsiz (pessimistik) kayfiyat ham) kuchli namoyon bo‘lgan.

Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan biri ko‘pma’nolilik (metaforiklik va assotsiativlik)dir. Metafora shoirning obrazli tafakkuri, o‘quvchi ongida jonli tasavvur (obraz) yaratish mahoratidan darak beradi. Tadqiqotda E-Kassirer, I.Kant, R.O.Yakobson, V.M. Jirmunskiy kabi olimlar qarashlariga tayanib, metaforaning quyidagi uch jihati muhimligi aniqlandi: a) metaforaning tabiatini tushunish; b) muayyan shoirning uslubini aniqlash; d) shoir dunyoqarashini anglash<sup>6</sup>.

Sharqdagi ilmi badi’ga oid adabiyotlarda ta’kidlanishicha, har bir badiiy obraz, xususan, ko‘chim (trop)ning negizida assotsiativlik yotadi<sup>7</sup>. Biroq assotsiativ (lotincha associatio – bog‘lanish) obrazlilik asosan XX asr she’riyatiga xosdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, poetik assotsiatsiyalar: a) hissiy-psixologik; b) mavzuiy-semantik; d) madaniy-ramziy kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. D.Quronov., Z.Mamajonov va M.Sheraliyevlar badiiy obrazni: a) ijodkor estetik ideali bilan munosabati; b) ijodiy metodi; d) yaratilish usuli; e) xarakter xususiyati va estetik belgisi; f) tasvir planiga ko‘ra tasnif qilishgan<sup>8</sup>.

Rus va AQSH adabiyotshunosi Mixail Naumovich Epshteyn<sup>9</sup> badiiy obrazlarni quyidagi turlarga bo‘ladi:

---

<sup>6</sup> Кассирер Э. Философия символических форм: В 3 т. / С нем. С.А.Ромашко. – М. – СПб.: Университетская книга, 2002; Кант И. Критика чистого разума / С нем. предисл. И. Евлампиева – М.: Эксмо СПб.: Мидгард, 2007; Якобсон Р. Сдвиги [предисл. С. Глебова] // Формальный метод: Антология русского модернизма. Т.3. – М. Екатеринбург: Кабинетный учёный, 2016. – С. 225; Жирмунский В.М. Теория стиха. – Советский писатель. Ленинградское отделение. 1975.

<sup>7</sup> Qarang: Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981; Болтабоев Х. Шарк мумтоз поэтикasi. – Т.: Миллий энциклопедия, 2006; Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979; Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – М.: Восточная литература, 2012; Шайх Аҳмад Тарозий. Фунуну-л-балоға. А.Ҳайитметов нашрга тайёрлаган. – Т.: Ҳазина, 1996 ва б.

<sup>8</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010.

<sup>9</sup> M.N Epshteyn rus mumtoz adabiyoti, ilohiyot (mistika), A.S.Pushkin, N.V.Gogol, F.M.Dostoyevskiy, B.L.Pasternak, O.E.Mandelstam, A.P.Platonov ijod olami, estetik ideal, she’riyat, peyzaj lirikasi, poetika, arxetiplar nazariyasi, semiotika, tafakkur va obraz uyg‘unligi, gumanitar fanlar metodologiyasi, postmodernizm, postsovet madaniyatining yangi istiqbollari singari ko‘plab muammolarni o‘rgangan.

a) **predmetlilik darajasiga** ko‘ra (detal obrazlar, voqea-hodisalar obrazi, xarakter va sharoit obrazi, dunyo va taqdir obrazi);

b) **umumlashtirish darajasi hamda strukturasi** ko‘ra: (inson obrazi, motiv obrazlar, topos obrazlar, arxetip obrazlar);

d) **strukturasi – tasvir va ifoda qatlamlari munosabatiga** ko‘ra (avtologik obrazlar, metalogik obrazlar, superlogik obrazlar)<sup>10</sup>.

M.N.Epshteynning yuqoridagi tasnifi qamrov darajasining kengligi bilan e‘tiborni tortadi. Zotan, olim butunni tashkil qiluvchi unsurlarni predmetlilik darajasi va tasvir ko‘lamiga ko‘ra bir-biridan farqlasa ham, bu qatlamlar o‘rtasida qat’iy uzviylik va izchillik mavjud, deb hisoblaydi.

Estetik tafakkur tarixida badiiy ijodning gnoseologik va ontologik talqini amal qiladi:

**1. Gnoseologik talqin:** Bunda “bilish nazariyasi” nuqtayi nazaridan yondashilib, ijodkorning dunyoni bilish imkoniyati, o‘zlikni anglash jarayoni, bilimlarni egallagan sari fikran va ruhan yuksalib borishi, bilimlar tabiati va ularda aks etuvchi narsalarning nisbati kabi antik tasavvurlardan shu kungacha bo‘lgan nazariy qarashlarga tayanilgan. Tadqiqotda bu masala Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va Ibn Arabiy kabi mutafakkirlarning qarashlari, tasniflari misolida izohlangan<sup>11</sup>.

**2. Ontologik talqin:** Adabiyot hamisha ontologik muammolar: Allohga bo‘lgan munosabat, xalq va mamlakat taqdiri, muayyan etnosning, keng ma’noda odam va olamning qismati, jamiyatning umumkayfiyati bilan bog‘liq haqiqatlarni aks ettirgan va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shu bois insoniyat ijod ahliga ehtirom ko‘rsatgan, ezgu fikr-qarashlariga ergashgan, adabiy qahramonlaridan ibratlangan. Nafis ibora, ramz va majoz qo‘llash mahorati hamda go‘zal obrazlaridan hayratlangan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib adabiyot real zaminga yaqinlashib, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma’naviy muammolar tahlili va badiiy tadqiqiga kirishgach, uning ommalashuv jarayoni yanada kuchaydi. Jahon adabiyotining ilg‘or yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirib, adabiy-falsafiy ifoda imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Hayotning negativ tomonlariga kinoyali va istehzoli munosabat bildira boshladi.

Tadqiqotda Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon she’rlaridagi obrazli ifoda va ramzlar rus shoirlari Aleksandr Blok (1880-1921), Anna Axmatova (1889-1966); arman shoiri Yeghishe Charens (1897-1937); italyan shoiri Federiko Garsia Lorca (1898-1936); amerika shoiri Lengston Xyuz (1902-1967); chili shoiri Pablo Neruda (1904-1973) ijodiy meroslari bilan qiyosiy o‘rganilgan va muayyan xulosalar chiqarilgan. Jumladan: rus shoiri Aleksandr Blok ijtimoiy kurashlar ruhi aks etgan she’r – “qo‘shiq” laridan birida:

---

<sup>10</sup> Эпштейн М.Н. Семантика славянского слово образа и структура его ассоциативных связей: автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1989; Он же. Стихи и стихии. Природа в русской поэзии XVIII-XX веков (серия «Радуга мысли»). Самара, Бахрах – М, 2007.

<sup>11</sup> Ибн Араби. Геммы мудрости. – Мекка – Бейрут, 1980; Он же. Мекканские откровения. – Мекка – Бейрут, 1989.

*Yo'llarim og'iridir, yo'lim ko'p yiroq,  
Ammo qo'shiq menga yo'ldosh va darmon*<sup>12</sup>.

deb yozgan edi. Ishda tahlilga tortilgan “yo'l” obrazi va “yo'lsizlik”, erk, ozodlik motivlari bilan bog'liq ruhiy qiynoqlar nainki o'zbek jadid, balki rus va jahon she'riyatida ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Mazkur bobning ikkinchi fasli **“Jadid she'riyatida ramzlarning genezisi va badiiy funksiyasi”** deb nomlanadi. Belgi, ramz va simvollar nazariyasi – semiotika atamasini fanga amerikalik mantiqchi, faylasuf va tabiatshunos olim Charlz Sanders Pirs (1839-1914) kiritgan edi<sup>13</sup>. She'riyatdagi ramz (simvol) – shartlangan belgi, timsol bo'lib, ruhiy kechinmani hissiy, obrazli tarzda ifodalaydi. Hissiy va mantiqiy obraz bag'ridagi belgi-ishoralar orqali mavhum tushuncha (*ijodkorning tiynati, estetik ideali, orzu-umidlari, iztirob-xavotirlari*)ni sharhlash va izohlash mumkin bo'ladi. Ramz o'zaro hamfikir va kechinmadosh (*shoir va kitobxon*) ruhan yaqinlashgan va estetik tafakkuri uyg'unlashgan nuqtada o'zini to'laqonli namoyon etadi.

Tadqiqotda olmon faylasuflari Fridrix Daniel Ernst Shleyermaxer (1768-1834) va Gans-Georg Gadamer (1900-2002) larning ramzning falsafiy, germeneytik, gnoseologik, ontologik, psixologik, sotsiologik, aksiologik jihatlarini ajratib ko'rsatishlariga diqqat qaratilgan<sup>14</sup>. Chunki adabiyot va san'at muayyan belgilar tizimidir. Bu ramz va simvollar ijtimoiy va estetik kelishuvlar, anglangan va anglanmagan faoliyat va me'yorlarning o'zaro aloqasiga asoslanadi. Biz Yu.Mann, E.Kassirer, K.Girs kabi olimlarning badiiy asardagi ramzlar talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlaridagi nazariy xulosalarga<sup>15</sup> tayanib, o'zbek jadid she'riyatida ramziy ifodalar quyidagi omillar orqali yuzaga chiqishini aniqladik: a) ijtimoiy-tabiiy muhit; b) intellektual-ma'naviy salohiyat; d) ajdodlarning odam va olamni idrok etish, poetik ifodalash tajribalari; e) avlodlararo bog'liqlikni ta'minlovchi axloqiy qadriyat va an'analar – etnomadaniyat; f) adabiy-madaniy meros – vorisiylik; j) o'qib-o'rganish, ko'rish, eshitish, ijodiy o'zlashtirish; h) texnogen sivilizatsiya. Binobarin, ramz va timsollar hamisha turfa rakurslardan sharhlash, tushunish va tushuntirish, muayyan qolip va me'yorlarga solishni talab etadi. Semiotikaning ijtimoiy-madaniy, adabiy-estetik ahamiyati aynan shu o'rinda namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada Yu.B.Borevning poetik asar to'qimasida yashovchi badiiy voqelik va estetik konsepsiya munosabatlari haqidagi nazariy qarashlarini milliy adabiyotshunoslikka tatbiq etish o'zbek jadid shoirlari qalamiga mansub she'riy matnlarda ifodalangan tabiiy, tarixiy, moddiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy-psixologik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, din va ilohiyot bilan bog'liq ko'plab masalalarni anglash va anglatish imkonini berdi. Bu hol birinchidan, badiiy ijod –

<sup>12</sup> XX asr jahon she'riyati. Антология / Рус тилидан М. Икром таржимаси. – Т.: Турон-Иқбол, 2011. – Б. 28.

<sup>13</sup> Пирс Ч. С. Что такое знак? // Вестн. Томского гос. ун-та. Сер. Философия. Социология. Политология. 2009, № 3 (7). – С. 88-95.

<sup>14</sup> Гадамер Г.Г. О круге понимания // Актуальность прекрасного. – М.: Искусство, 1991. – С.72-91; Гадамер Г.Г. Философские основания XX века // Актуальность прекрасного. – М.: Искусство, 1991. – С.15-26; Шлейермахер Ф. Академические речи 1829 года. – М.: Науч. изд., 1987. – С.218.

<sup>15</sup> Манн Ю. Диалектика художественного образа. – М.: Наука, 1987; Кассирер Э. Философия символических форм: В 3 тт. (Пер. с нем. С.А.Ромашко). – М.: – СПб.: Университетская книга, 2002.; Гирц К. Интерпретация культур. – М.: РОССПЭН, 2004.

obrazli fikr mahsuli, she'r – san'at tiliga ko'chgan badiiy-estetik voqelik ekanini yana bir bor tasdiqladi. Ikkinchidan, olam va odam haqidagi tasavvurlar makon va zamonidan qat'i nazar, muayyan bir shoir (ijodkor inson) shaxsi – tafakkur kengliklari, tahayyul yuksakliklari, poetik mahorati orqali badiiy matnga ko'chishiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamladi. Masalan: Hamza lirik "men"i:

*Bu Nihon qon yig'layur millat uchun laylu nahor,  
Yoz o'tub, qish keldi holo, bizga bo'lgan yo'q bahor,*

*Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,  
Chora shul: maktab ochaylik, shoyad o'lsun sabzalar,*

*Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?  
Millata shavkat, taraqqiy, sha'nu davron istariz –*

der ekan, uning ortida millat va xalq kelajagi uchun iztirob chekayotgan shoir shaxsi turganini ilg'ash qiyin emas.

Darhaqiqat, Hamza o'z fikr-qarashlarini obrazli ifoda va ramzlar orqali talqin etadi. She'rdagi "yoz", "qish", "bahor" kabi yil fasllarini anglatuvchi so'zlar shoirning ijodiy niyatiga ko'ra ramziy ijtimoiy-ma'rifiy ma'no tashiydi. Nihon (Hamza) tunu kun qon yig'lashi zamirida qadimiy adabiy an'ana ("Alp Er To'nga" marsiyasi, "Qish va yoz" munozarasi, O'rxun-Enasoy toshbitiklari) da kuzatilgan Vatan va millat dardida chekilgan achchiq iztirob va alamli nolalar turadi<sup>16</sup>. Bu hol bizga "Devonu lug'otit turk" (Mahmud Koshg'ariy), "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" (Beruniy), "Qisasi Rabg'uziy" (Rabg'uziy), "Saddi Iskandariy" (Navoiy) kabi asarlardagi yil fasllari, jumladan, Navro'z xususidagi zohiriy va botiniy ma'nolarga boy, bahorga intiq bo'lgan alohida bir mehrga to'la misralarni eslatadi. Pirovardida, shoir dunyoqarashi ko'lamli va tahayyul ufqlari yuksak ekanidan ogoh etadi. Zotan, Hamzaning uyg'oq va yorug'likka talpinuvchi qalbi tabiatga har qancha hamohang bo'lmasin, zamoniy o'zgarishlar shiddati millatdoshlarini uyg'otmayotgani, muqaddas makonda hamon tutqunlik, zulm va istibdod hukmron ekanidan iztirob chekadi. Binobarin, shoir milliy jipslik, birdamlik va erkni sog'inadi<sup>17</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "**Jadid she'riyatida hayotiy voqelik va poetik obraz uyg'unligi**" masalasi tadqiq qilingan. Bobning birinchi faslida "**Obrazlarning ijtimoiy va estetik asoslari**" o'rganilgan. Mustamlakachilik siyosati va zulm girdobida ezilgan, ochlik va muhtojlikdan tinkasi qurigan Turkiston aholisi istibdodga qarshi isyon ko'tardi. Birinchi jahon urushi munosabati bilan mardikorlikka olish haqidagi farmon xalqning noroziligini, ayniqsa, kuchaytirib yubordi. Jazo otryadlari vayronaga aylantirgan o'lkaning shahar va qishloqlardagi ahvol xalq qo'shiqlaruda: *Osh kadi, palov kadi, Tomga chiqib dod ayladi. Namozgohni askar bosib, Jizzaxni vayron ayladi*", tarzida ramzlashtirib ifodalandi.

<sup>16</sup> Bu haqda qarang: Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б.104-105.

<sup>17</sup> Yoqubova S.I. Jadid caustic singer poetry / Cognitive research in education: xalqaro konferensiya materiallari. – Samarqand, 2021. – B.478-481.

Bu ruh folklardan yozma adabiyotga ko‘chdi. Ubaydullo Zavqiy: *“Qahatchilik bo‘ldi, bu Farg‘onamizda, Topilmas parcha non vayronamizda”*, deb yozadi<sup>18</sup>. Shoir o‘sha kezda o‘lkada yuzaga kelgan qashshoqlikning ayanchli oqibatlarini: “parcha non”ga zor odamlar va “vayrona” kulba obrazlari orqali iztirob bilan suratlantiradi.

Avloniyning “Mardikorlar ashuvlasi”<sup>19</sup> (1916) asarida o‘g‘lini front orqasi – mardikorlikka jo‘natayotgan, islomiy e‘tiqodi mustahkam ota-onaning iztirob-nolalari, umid-iltijolari, farzandning esa ota-onasi va sevimli yori bilan xayrlashuv oldidagi mahzun kayfiyat-hollari, shuningdek olis o‘lkalardagi og‘ir va mashaqqatli hayoti aks etgan. Ota mardikorlikka ketayotgan o‘g‘liga qarata:

*G‘am yema, o‘g‘lum, qaro kunlar ketub oq kun chiqar,  
Yerga nam, qo‘rqunch bulutlar ketub, oydin chiqar...  
Mehribonlardan ayrilding, bo‘lma Hijron, ey bolam,  
Ham Vatandan ayrilib, sen diydagiryon, ey bolam*<sup>20</sup>.

Jismoniy kuchdan qolgan, o‘zini ruhan tetik tutishga urinayotgan, sabrmatonatli Ota o‘z farzandini qodir Allohning panohiga topshiradi: *“Xudo yoring bo‘sun”*, *“Ollog‘a topshurdum sani”*, *“Mavlog‘a topshurdum sani”* kabi duo-alqovlar uning komil e‘tiqodidan darak beradi. Shuning uchun ham ota: *“qaro kun”*lar ketib, *“oq kun”*lar kelishiga va *“qo‘rqunch bulut”*lar o‘z o‘rnini *“oydin tunlar”*ga bo‘shatib berishiga qattiq ishonadi.

She‘rda oq rang – tinchlik, osoyishtalik, ozodlik, poklik, beg‘ubor go‘zallik va oddiylik ramzi sifatida talqin etiladi. Ota ozod va erkin zamoni orzulagani uchun ham yaqin kelajakda o‘z oilasi, xalqi va umuman yurtining hayotida toza sahifalar boshlanishiga komil ishonch hamda umid bilan qaraydi.

Qadimiy tasavvurlardayoq qora rang yorug‘likka zid ma’noda qo‘llanilib, qorong‘ulik va tuman jaholatni, shuningdek yovuzlik hamda g‘am-anduh ma’nolarini bildirgan. Marhumlar saltanati qora rangda tasavvur qilinadi. “Avesto”<sup>21</sup>da olam dualistik tasavvurlar: nur – zulmat; hayot – o‘lim; tana – jon; yaxshilik – yomonlik; poklik – ifloslik; erkinlik – tobelikning azaliy va abadiy kurashi asosiga qurilgan.

She‘riyatda ranglar shunchaki belgi-tus bildirmaydi. Ular orqali lirik qahramon ruhiyati, o‘y-kechinmalari ham poetik ifodaga ko‘chadi. Shuningdek, rang orqali shoir muayyan manzara yoxud vaziyat-holatga ramziy-majoziy munosabat bildiradi. Abdulla Avloniy “Oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yorug‘” ekani haqidagi xalq maqoliga tayanib, oq va qora ranglarni bir-biriga zidlantirar ekan, qoralik oqlik bilan almashinuvi muqarrar ekaniga ishonadi. Shuning uchun ham Ota mardikorlikka jo‘natilayotgan o‘g‘liga ruhiy dalda bera oladi.

Hamzaning mardikor yigitning yuzboshiga javobi tarzida yozilgan “Sog‘inib” she‘ri hazin ohangi, emotsional ta’sir kuchi, obrazning yorqin poetik tasviri bilan alohida ajralib turadi. She‘rda “dili qon”, “yurak bag‘ri ezilgan”, “ko‘ngli siniq”,

<sup>18</sup> Завқий. Ажаб замона. Шеърлар. – Т.: Шарқ НМАК, 2003.

<sup>19</sup> Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. Икки жилдлик. Ж.1. – Т.: Маънавият, 2020. – Б.218-221

<sup>20</sup> Абдулла Авлоний. Ўша жойда. – Б.218.

<sup>21</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик / Аскар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.384.

“rangi somon”, “aqlu hushdan begona”, “dili g’amli, ko‘zi namli” musofir yigit obrazi qabariq suvratlangan. Uning tilidan:

Falak titrar chin oh ursam dodim(g)a...

Ado bo‘ldim ellarimni sog‘inib<sup>22</sup> -

tarzidagi sog‘inch va firoq tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan kechinmalar talqini, ayniqsa, xarakterlidir. Shoirning “Salom ayting” she‘rida esa mashaqqatli mehnat ostida sog‘ligidan ayrilgan, o‘zi og‘ir xasta bo‘lsa-da, yiroqdagi yaqinlarini ayab, ertadan umidvorlik bilan ularga duoyi salom yo‘llayotgan mardikor yigit ruhiyati tasvirlanadi:

Ag‘o, sog‘ borsangiz, avval

Dadamlarga salom ayting.

Yugurib chiqqan ul mushfiq

Onamlarga salom ayting<sup>23</sup>.

E‘tiqodda sobit mardikor yigit dadasiga Ya‘qub alayhissalom bardoshini tilaydi<sup>24</sup> va o‘zining chiroyli sabr sohibi ekanini namoyon etadi. Bu orqali Hamza “Qur‘oni Karim”dagi Ya‘qub alayhissalom qissasiga ishora qiladi. Adabiyotshunos Nodira Afoqova fikricha: “Hamzaning barmoq vaznidagi she‘rlari ohangining ravonligi, silliqligi, saktaliklarning deyarli uchramasligi bilan xarakterlanadi”<sup>25</sup>.

Bobning **“Erk va ozodlik motivlarining obrazli tasviri: mushtaraklik va o‘ziga xoslik”** nomli ikkinchi faslida Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Hamza, Tavallo singari o‘zbek va Mag‘jon Jumaboy, Abdulla To‘qay, Tavfiq Fikrat, Rizo Tavfiq, O‘rxon Vali, Nozim Hikmat kabi qozoq, tatar va turk ma‘rifatparvar jadid shoirlari qo‘llagan ramz va obrazlar ifodalagan erk va ozodlik motivlariga xos mushtarak va o‘ziga xos qirralar qiyosiy tahlil etilgan.

O‘zbek jadid she‘riyatining yorqin namoyandalaridan biri – Tavallo yangi maktab va maorif zarurati xususida mazluma qizlar tilidan ota-onalarga murojaat qilarkan, shunday yozadi:

*Duo aylang, anolar, emdi bid‘atlar qurub ketsun,*

*Biz uchun sizni qilg‘on mol sanduqda churub ketsun,*

*Atolar rahm edub, maktab solub, bizlarni o‘qutsun,*

*Agar o‘qutmasa, Lut qavmidek bizlarni yer yutsun,*

*O‘lum bizlarga ortuq ilmsiz dunyoda rohatdan*<sup>26</sup>.

Dissertatsiyada ushbu she‘rda shoir murojaat qilgan talmeh san‘ati Qur‘oni Karimdagi Lut (A.S) qissasi bilan bog‘liq “Hud”, “Hijr”, “Haj”, “Shuaro”, “Naml”, “Ankabut”, “Sod”, “Qof”, “Qamar”, “Tahrim”, “An‘om”, “A‘rof”, “Anbiyo” va “Soffaat” suralarida keluvchi ta‘kid va ishoraviy mazmun bilan qiyoslangan. She‘rda *“tumor”, “cho‘lfi-so‘lfi”, “to‘quz-to‘quz”* sarpo kabi bid‘atlar kinoyaviy tarzda tanqid qilingan. Ayni paytda *“baldoq”, “marjon”, “zebi gardon”, “durri*

<sup>22</sup> Хамза. Тўла асарлар тўплами. Беш жилдлик. Ж.2. – Т.: Фан, 1988 – Б. 89.

<sup>23</sup> Хамза. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Ж.2. – Т.: Фан, 1988 – Б. 90.

<sup>24</sup> Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима / Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т., 1992. Юсуф сураси, 18-оят.

<sup>25</sup> Афоқова Н. Ўзбек жаҳид шеъриятида шеърини шакллар таракқиёти тамойиллари: Филол.фан. д-ри... дисс. автореф. – Т., 2005. – Б.16.

<sup>26</sup> <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-mumtoz-sheriyati/tavallo/>

*g'alton*” singari moddiy ziynatlar butkul inkor etilgan. E’tiborli jihati shundaki, “*cho ‘lfi-so ‘lfi*” ga o‘xshagan kinoya, kesatiq va “*qurub ketsun*”, “*churub ketsun*”, “*yer yutsun*” singari qarg‘ishlar Tavalloning iymon, insof, diyonat, o‘zlik, tavba haqidagi e’tiqodiy qarashlari, ilm-ma’rifatni ma’qullash maslagi ifodasidir.

Qozoq shoiri Mag‘jon Jumaboy Beken o‘g‘li (1893-1938)ning “Turkiston” qasidasida ona Vatan “*ikki dunyo eshigi, er turkning beshigi*” deya ulug‘lanadi. “*Turonning tarixi bor misli yalov*”, deb yozadi shoir. “*Eshik*”, “*beshik*”, “*yalov*” kabi ko‘chma, majoziy ma’no tashuvchi istioralar Vatan obrazining tavsifini yorqin ifodalash hamda she’riy nutqning joziba kuchini oshirishga xizmat qilgan.

O‘zbek va qardosh xalqlar ma’rifatparvar jadid shoirlari lirik asarlaridagi mushtarakliklar ularning:

a) dualistik qarashlar va hissiy kechinmalarini ijtimoiy mavzular bilan chambarchas bog‘lab: “*oq – qora*”, “*tun – kun*”, “*nur – zulmat*”, “*shayton – rahmon*”, “*yo ‘l – yo ‘lsizlik*”; “*bulbul*” – “*boyqush*”; “*poda*” – “*bo ‘ri*”; “*yaylov*” – “*o ‘t*” (“*olov*”) kabi o‘sha davrga mos ma’no tashuvchi o‘xshatish va timsollar qo‘llash;

b) she’rlarini xalq qo‘shiqlari mazmun-mohiyati, ohangi, ritmi va ichki ruhiga muvofiqlashtirish;

d) zamon va makonda sodir bo‘layotgan voqealar (davr ruhi va zamondosh kayfiyat-hollari)ni badiiy ifodalash samimiyatida kuzatiladi.

Tadqiqotda bu holat XIX asrning oxiri va XX asr ilk choragida Turkistonning taraqqiy etgan davlatlardan ortda qolishi, mustamlakachilik va loqaydlik tufayli sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy buhronlar, behuda qon to‘kishlar va kamsitishlar milliy tuyg‘ulari baland, vatanga muhabbati ulug‘ shoirlar qalbini larzaga keltirib so‘ngra poetik ifodaga ko‘chgani kuzatilgan. Bunda ilgari surilgan fikr-mulohazalar “Turkiston muxtoriyati”, “Qiz qo‘shig‘i”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Amalimning o‘limi”, “Yong‘in” (Cho‘lpon); “Temur oldinda”, “Behbudiyning sag‘anasin izladim” (Fitrat); “Payg‘ambar” (M.Jumaboy); “Buyuk insonlik” (N.Hikmat); “Anglatolmayapman”, “Poezd ovozi”, “Yo‘lchilik” (O‘rxon Vali); “Uching qushlar”, “Onado‘li”, “Qalandariy”, “G‘arib holat”, “G‘arib shom” (Rizo Tavfiq) kabi she’rlar tahlili orqali dalillangan. Zotan, turkiy xalqlar ma’rifatparvar jadid shoirlari dard-iztiroblari, quvonch-shodliklari, umid va umidsizlik aro tebranishlari, uyg‘onishga da’vat-chorlovlarida ruhiy uyg‘unlik mavjud. Cho‘lponning “Qalandar ishqi” she’ridagi lirik kechinma o‘ziga xos ifodalangan:

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo ‘lmi yo ‘gotdim-ku,*

*Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarlik yo ‘lda gotdim-ku*<sup>27</sup> –

degan bayti M.Jumaboyning: “*Mening yo ‘lim bor edi, / Hozir mamlakat yo ‘q, yo ‘l yo ‘q*”<sup>28</sup> kabi misralari bilan nechog‘liq ruhan yaqin bo‘lmasin, bu tuyg‘uni har bir shoir o‘ziga xos vazn, ifoda va tamsillar orqali ifodalagan. Darhaqiqat, N.Hikmat:

<sup>27</sup> Чўлпон. Асарлар. Уч жылдик. Ж.1 – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б. 6

<sup>28</sup> <https://almatylit.ucoz.ru/publ/13-1-0-255>

“So‘z bo‘lsam, chaqirsam adolatga, ezgulikka, go‘zallikka / So‘z bo‘lsam, sevgimni so‘zlasam ohista.”<sup>29</sup> deb yozganida, Vatanga cheksiz muhabbatini izhor etgan edi.

Demak, XX asr boshlari o‘zbek jadid she‘riyatidagina emas, balki turkiyzabon xalqlar lirikasida ham jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarga yechim izlash, Vatan va millat taraqqiysi masalalari estetik ideal darajasiga ko‘tarilgani kuzatiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘zbek jadid she‘riyatida poetik obraz va ramzlar mohiyati**” deb nomlanadi. Bobning birinchi faslida “**Cho‘lpon lirikasida ramziy-majoziy va obrazli talqin**” xususiyatlari tadqiq etildi. Abdurauf Fitrat o‘zining “Sharq siyosati” (1919) asarida: “*Sharq bir kun tinchlik va taraqqiy beshigi edi. Bu kun oyoqlar taginda ezilgan Sharq bir kun madaniyatning yo‘lboshchisi, bilim va hunarning o‘chog‘i edi*”<sup>30</sup>, deb yozgan edi. Cho‘lpon ham “Buzilgan o‘lkaga” (Andijon, 1921) she‘rida o‘sha “*beshik*” va “*o‘choq*” bo‘lgan Sharq haqida so‘zlar ekan, Fitratga ruhan yaqin tarzda fikrlaydi. Shoir bir paytlar “*tog‘lari ko‘klarga salom bergan*” o‘lka boshiga “*qora bulut ko‘lanka*” solganidan behad tashvishga tushadi, iztirob chekadi. “*Qora ko‘lanka*” – zo‘rluk, qo‘rqinch, Turkiston qismatidagi qorong‘ulik timsoli edi. Uning kayfiyat-holiga monand tarzda: “*ujmohlarning kavsari*” (jannat daryolaridan biri) kabi pokiza, sadaf donasidek go‘zal va bebaho salqin suvlar ham nolakor ingraydi.

Ona yurtining ayanchli ahvoliga toqat qila olmagan Cho‘lpon poetik tasvirning haqqoniy va badiiy ifodaning ta’sirli bo‘lishini ta’minlagan. Uning lirik qahramoni: “*Nega?*”, “*Bu nega?*”, “*Nima uchun?*”, “*Qaerda?*” kab savollar og‘ushida fikriy uyg‘onishga da’vat etib, ruhan erkka chorlovchi, dilni o‘rtaguvchi savollarni takror va takror o‘rtaga tashlaydi:

*Nega seni bir qul kabi qizg‘anmasdan yanchalar?  
Nega sening qalin tovshing “ket” demaydi ularga? ...  
Nima uchun ko‘zlaringda tutashguvchi olov yo‘q?  
Nima uchun tunlaringda bo‘rilarning qorni to‘q?*<sup>31</sup>.

Cho‘lpon “*kulayotgan qamchi*”, “*o‘layotgan umid*”, “*tomchilayotgan qon*”, “*qorni to‘q bo‘ri*”, “*og‘u-o‘q*” singari buzg‘un bir ahvol-kayfiyat ifodalovchi obrazlar qarshisiga ularning ziddi bo‘lgan “*qalin tovush*”, “*erkli ko‘ngil*”, “*ko‘zdagi olov*”, “*o‘ch buluti*”, “*sel*”, “*kuch tangrisi*” kabi erk va ozodlik ramzi bo‘lgan obrazlarni qo‘yadi. Lirik qahramon umidsizlikka tushmaydi. Aksincha, elning so‘ngan umidlarini qayta jonlantirishga intiladi. Yovlarni quvish, mard va jasur bo‘lishga chorlaydi:

